



# FARG'ONA VILOYATI QO'QON SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 йил «5» май

125-11-166-Q/22

Қўқон шаҳар ҳокимлиги

## **О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi 204-sonli hamda Farg‘ona viloyat hokimining 2022-yil 25-apreldagi 169-11-O-Q/22- sonli qarorlari ijrosini ta’minlash haqida**

О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-sonli **Farmoni** bilan boshlangan yer munosabatlari sohasidagi islohotlarni izchil davom ettirish, shuningdek, elektr uzatish tarmoqlari, aloqa liniyalari, gaz, neft, suv va kanalizatsiya quvurlari, temir yo‘l liniyalari, avtomobil yo‘llari, kanallar, kollektor - drenaj tarmoqlari va shu kabi boshqa inshootlar (*keyingi o‘rinlarda - muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari*) uchun yer uchastkalarini ajratish jarayonlarini kompleks huquqiy tartibga solish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12- apreldagi “Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-sonli, Farg‘ona viloyat hokimining 2022-yil 25-apreldagi 169-11-O-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6,25-moddalariga asosan

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi “Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-sonli, Farg‘ona viloyat hokimining 2022-yil 25-apreldagi 169-11-O-Q/22-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

quyidagi yoʻnalishlardagi vazifalarni oʻz ichiga olgan Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish boʻyicha “yoʻl xaritasi” (*keyingi oʻrinlarda - “Yoʻl xaritasi”*) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

oʻzganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (*servitut*) institutini yanada rivojlantirilishi;

muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining hisobi va davlat kadastrini yuritish tartibini takomillashtirilishi;

doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan yer uchastkalaridan foydalanish sohasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirilishi;

muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun zarur yer uchastkalarini aniqlash va ulardan foydalanish tartibini belgilanganligi.

Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosarlari, vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlari zimmasiga “Yoʻl xaritasi”da belgilangan har bir tadbirning oʻz vaqtida va sifatli amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklanganligi.

“Yoʻl xaritasi”da belgilangan qonunchilik hujjatlari kuchga kirguniga qadar muxandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratishning quyidagi tartibi joriy etilganligi:

temir yoʻl liniyalari va avtomobil yoʻllari, ularning ajratilgan mintaqalari, suv xoʻjaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obʻektlarining qirgʻoqlari boʻylab ajratilgan mintaqadagi yerlar uchun Oʻzbekiston Respublikasi Yer kodeksining [20-moddasiga](#) muvofiq Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori asosida doimiy foydalanish huquqi bilan yer uchastkalari ajratilishi;

agar qonunchilikda va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda yer uchastkalari ajratish shartligi haqidagi qatʻiy talab mavjud boʻlmasa, elektr uzatish tarmoqlari, aloqa liniyalari, gaz, neft, suv va kanalizatsiya quvurlari, qishloq, xoʻjaligi va oʻrmon xoʻjaligi yerlari tarkibidagi ichki yullar va kichik suv xavzalari uchun doimiy foydalanish xukuki bilan yer uchastkalarini ajratish talab etilmasligi. Bunda, ushbu turdagi obʻektlarni joylashtirish, ularni qurish vaqtida yondosh yer uchastkalaridan vaqtincha foydalanish uchun oʻzganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (*servitut*) belgilanishi;

o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi Yer Kodeksining 30-moddasiga muvofiq servitut to'g'risidagi kelishuv shaklida, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sud qarori bilan rasmiylashtirilishi mumkinligi;

servitut to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilishi, uning birinchi tarafi sifatida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini balansda saqlovchi tashkilot, ikkinchi tarafi sifatida yer uchastkasi mulkdori (*zaxiradagi yerlarda tuman (shahar) hokimi*), egalik qiluvchisi va foydalanuvchisi, ijara huquqi bilan ajratilgan yerda esa ijarachi va ijaraga beruvchi ishtirok etishi;

o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi belgilanganda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari egallaydigan yer maydoni, ushbu ob'ektlarni qurish, ulardan foydalanish, ko'zdan kechirish, ta'mirlash shartlari, yer fondi toifasidan qat'i nazar yer uchastkasi mulkdori, egasi, foydalanuvchisi va ijarachisiga yetkazilgan zararni qoplash, yer uchastkasini uning avvalgi holatiga keltirish, servitut uchun haq to'lash tartibi hamda servitut belgilangan yer uchastkasidan foydalanishdagi cheklovlar ko'rsatilishi shartligi;

o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi taraflarning murojaati asosida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi, bu haqda taraflarga Ko'chmas mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reestridan elektron ko'chirma beriladi, ushbu ko'chirma arxitektura va qurilish sohasida davlat xizmatlaridan foydalanishda yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat sifatida qabul qilinishi;

o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi belgilangan yer uchastkasi qismi uchun yer solig'i (*ijara to'lovi*) yer uchastkasi mulkdori, egasi, foydalanuvchisi va ijarachisi tomonidan to'lanadi, bunda servitut uchun to'lanadigan (*bir martalik yoki bir yilgi*) haq miqdori servitut amal qiladigan muddatdagi yer solig'i (*ijara to'lovi*) summasidan kam bo'lishi mumkin emasligi;

o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi belgilanishi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar ijarachisining shartnoma majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa, servitut davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin yer ijarasi shartnomasiga ham tegishli o'zgartirishlar kiritilishi;

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va o'rmon fondi yerlarining yer fondi toifalarini o'zgartirish masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha Xukumat komissiyasi

(keyingi o‘rinlarda - Xukumat komissiyasi) 2-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Xukumat komissiyasi raisi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi Xukumat komissiyasining ishchi organi hisoblanishi;

Xukumat komissiyasi ko‘rib chiqishi uchun masalalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, shuningdek, ular bilan kelishgan holda respublika davlat boshqaruvi organlarining birinchi rahbarlari tomonidan ishchi organga, u tomonidan belgilanadigan yagona talablar asosida kiritilishi;

Xukumat komissiyasi yig‘ilishi, qoida tariqasida, har oyda bir marotaba uning raisi yoki ishchi organi tashabbusi bilan o‘tkazilishi;

Xukumat komissiyasi Yer kodeksining 44 va 45-moddalarida, boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida takliflarni ko‘rib chiqib, qaror qabul qilishi;

Xukumat komissiyasining qarori bayon shaklida rasmiylashtirilishi, bayonga Yer kodeksining 9-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va (yoki) Vazirlar Mahkamasining farmoyishi loyihasi ilova qilinib, bayon va farmoyish loyihasi uni yoqlab ovoz berganlar tomonidan imzolanishi;

Xukumat komissiyasi a‘zolari tomonidan imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va (yoki) Vazirlar Mahkamasining farmoyishi loyihasi ishchi organ tomonidan Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi, bunda mazkur loyihalarni boshqa idoralar bilan kelishish talab etilmasligi belgilanganligi;

muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar orqali o‘tkazishda ularni yer konturlari chegarasi, ichki yo‘llar va suv xo‘jaligi ob‘ektlari bo‘ylab, sug‘oriladigan yerlarga eng kam salbiy ta‘sir ko‘rsatishni inobatga olib joylashtirish nazarda tutilishi;

muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini o‘tkazish bo‘yicha loyiha hujjatlarida sug‘oriladigan yerlarning qisqarishi, tuproq unumdorligining pasayishi, sug‘orish va melioratsiya tizimining buzilishi bilan bog‘liq zararlar, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi nobudgarchiligini, yer mulkdorlari, egalari, foydalanuvchilari va ijarachilariga yetkaziladigan zararlarni qoplash bilan bog‘lik boshqa xarajatlar (*undirilishi yoki ozod qilinishidan qat‘i nazar*) majburiy ravishda ko‘rsatilishi;

muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining yakuniy traektoriyasini (yoʻnalishini) tanlash mazkur bandda nazarda tutilgan xarajatlarni oʻzaro solishtirish orqali amalga oshirilishi;

Davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, koʻp kvartirali uy-joylar mulkdorlari foydalanishida boʻlgan, biroq yer ajratish haqida qaror qabul qilinmagan yer uchastkalarini (*keyingi oʻrinlarda - foydalanishdagi yer uchastkalari*) ajratishning quyidagi tartibi belgilanganligi:

foydalanishdagi yer uchastkalari amaldagi foydalanuvchilarga Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarori bilan tasdiqlangan Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning **maʼmuriy reglamentida** belgilangan tartibda doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilishi;

foydalanishdagi yer uchastkasini ajratishdan oldin uni davlat mulki sifatida davlat roʻyxatidan oʻtkazish talab etilmasligi;

agar yer uchastkasining amaldagi foydalanish maqsadini oʻzgartirish uchun qonunchilikda belgilangan aniq asoslar mavjud boʻlmasa, foydalanishdagi yer uchastkasini ajratish materiallarini vakolatli tashkilotlar tomonidan kelishishni rad etishga yoʻl qoʻyilmasligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Shahar hokimining oʻrinbosari B.Karimov, Kadastr agentligi shahar boʻlimi, taaluqli tashkilotlar bilan birga belgilangan tartibda bir oy muddatda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari joylashgan foydalanishdagi yer uchastkalarining, shuningdek, investitsiya loyihalarini amalga oshirish boʻyicha qarorlarda nazarda tutilgan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari joylashadigan yer uchastkalarining yer fondi toifasini oʻzgartirish boʻyicha takliflarni viloyat hokimligining ishchi organiga kiritilsin.

4. Shahar hokimining ayrim qarorlariga 3-ilovaga muvofiq oʻzgartirishlar kiritilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni oʻz zimmasida qoldiraman.

Qo'qon shahar hokimi



M.Usmonov

Qo‘qon shahar hokimining  
2022 yil 5 maydagi  
125-11-166-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2022-yil 12-apreldagi PQ-204-son qarori  
bilan tasdiqlangan

**Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalarini ajratish tartibini  
takomillashtirish bo‘yicha  
“YO‘L XARITASI”**

T/r	Chora-tadbir nomi	Chora-tadbirning asosiy mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
<b>I. O‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) institutini yanada rivojlantirish</b>					
1.	O‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) to‘g‘risidagi kelishuvning namunaviy shaklini takomillashtirish.	1. Servitut turlari bo‘yicha, shu jumladan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini o‘tkazish uchun servitut to‘g‘risidagi kelishuvning shaklini ishlab chiqish. 2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-sentabrdagi 535-son qaroriga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha loyiha ishlab chiqish va kelishish. 3. Loyihani Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil 1-iyun  2022-yil 10-iyun	Kadastr agentligi, Adliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi
2.	Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini o‘tkazish uchun servitut to‘g‘risida kelishuv tuzish amaliyotini keng joriy etish.	1. Balansda saqlovchi tashkilotga ajratilmagan yerlardan o‘tgan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini xatlovdan o‘tkazish, ularning manzilli ro‘yxatini shakllantirish. 2. Servitut to‘g‘risidagi kelishuv loyihalarini tayyorlash va huquq egalariга yetkazish. 3. Taraflarning roziligiga ko‘ra servitut to‘g‘risidagi kelishuvlarni rasmiylashtirish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish. 4. Kelishuvga erishilmagan obyektlar bo‘yicha sudlarga da‘vo arizalari kiritish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil 1-iyul  2022-yil 1-sentabr  Doimiy ravishda  Doimiy ravishda	Energetika vazirligi, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi
3.	Servitut institutini qo‘llashni yanada kengaytirish.	1. Servitut institutini qo‘llash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba va milliy amaliyotni o‘rganish. 2. Servitut institutiga doir qoidalarni yanada kengaytirish, shu jumladan “ommaviy servitut” (“public servitude”) tushunchasini Yer kodeksi, Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga kiritish bo‘yicha loyihalar tayyorlash. 3. Loyihalarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2022-yil 1-iyul  2022-yil 1-avgust  2022-yil 1-sentabr	Adliya vazirligi, Kadastr agentligi, TDYU
<b>II. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining hisobi va davlat kadastrini yuritish tartibini takomillashtirish</b>					

4.	Ichimlik va oqova suv quvurlari davlat kadastrini yuritishni joriy etish (yangi tur yoki mavjud kadastrlardan birining qismi).	1. Ichimlik va oqova suv quvurlari hisobini yuritish tizimini tahlil qilish. 2. Ichimlik va oqova suv quvurlari davlat kadastrini yuritish tartibini ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalarini belgilash.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2022-yil 1-iyul	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, "O'zsuva'minot" AJ, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi
5.	Davlat kadastrlari yagona tizimiga taqdim etilayotgan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari haqidagi davlat kadastrlari ma'lumotlarining tarkibini kengaytirish.	1. Suv, shaharsozlik, transport quvurlari, aloqa obyektlari, energetika obyektlari va boshqa davlat kadastrlarida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari haqidagi ma'lumotlar tarkibini tahlil qilish. 2. Davlat kadastrlarini yuritish tartibi haqidagi nizomlar hamda Davlat kadastrlari yagona tizimiga tegishli davlat kadastrlari ma'lumotlarining tarkibini kengaytirish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2022-yil 1-iyun 2022-yil 1-iyul	Kadastr agentligi, davlat kadastrlarini yuritish majburiyati yuklatilgan vazirlik va idoralar
<b>III. Doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan yer uchastkalaridan foydalanish sohasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirish</b>					
6.	Doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan yerlarni boshqa tashkilotlarga ijaraga berish amaliyotini tahlil qilish va takomillashtirish.	1. Doimiy foydalanishga berilgan yerlarni boshqa tashkilotlarga ijaraga berish tartibini ishlab chiqish. 2. Davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining yer uchastkalarini boshqarish sohasidagi faoliyatini tahlil qilish. 3. Qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, kelishish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Tahliliy ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2022-yil 1-iyun 2022-yil 20-iyun 2022-yil 1-avgust	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Adliya vazirligi, Energetika vazirligi, Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi
7.	Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun amalda foydalanib kelinayotgan yer uchastkalarini soddalashtirilgan tartibda doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berish tartibini belgilash.	1. Davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari amalda foydalanib kelayotgan, ko'p kvartirali uylar joylashgan va ularga tutash yer uchastkalarini doimiy foydalanish uchun ajratish, ushbu yerlarda joylashgan ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni belgilovchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini tahlil qilish. 2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qaror loyihasini kiritish.	Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi	2022-yil 1-may 2022-yil 1-iyun	Kadastr agentligi, Adliya vazirligi, Qurilish vazirligi



8.	Doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan va boshqa tashkilotlarga ijaraga berilgan yerlarga soliq solish tartibini takomillashtirish.	1. Budget tashkilotlariga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan hamda ular tomonidan tijorat va notijorat tashkilotlarga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan yer solig'ini undirish amaliyotini tahlil qilish.	O'zbekiston Respublikasining qonuni loyihasi	2022-yil 1-may	Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Energetika vazirligi
		2. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari obyektlarini balansda saqlovchi tashkilotlarga berilgan soliq imtiyozlari va ularni qo'llash amaliyotini tahlil qilish.		2022-yil 20-may	
		3. Budget tashkilotlariga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan va ular tomonidan tijorat va notijorat tashkilotlarga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan soliq undirish, ushbu holatda ijaraga beruvchi yoki ijaraga oluvchi uchun berilgan soliq imtiyozlarini qo'llash tartibini aniqlashtirish bo'yicha Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida takliflar tayyorlash.		2022-yil 1-iyun	
		4. Loyihani kelishish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		2022-yil 1-iyul	
9.	Yer uchastkalari ijarasi turlarini tasniflash, ularning xususiyatlarini aniq belgilash.	1. Yer uchastkalari ijarasi sohasida ilg'or xorijiy tajriba va milliy amaliyotni o'rganish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2022-yil 1-may	Adliya vazirligi, Kadastr agentligi
		2. Yer kodeksi, Fuqarolik kodeksi, "Ijara to'g'risida"gi, "Garov reyestri to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash.		2022-yil 1-iyun	
10.	Hokimlar tomonidan qurilishga ruxsat berish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish amaliyotini o'rganish.	1. "E-qaror" tizimi orqali qurilishga ruxsat berish to'g'risidagi qarorlarni tahlil qilish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2022-yil 1-iyun	Adliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi
		2. Ushbu qarorlarni qabul qilish zaruratini o'rganish, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish.		2022-yil 1-iyul	
11.	Hokimlar tomonidan ho'jaliklararo yer tuzish loyihasini tasdiqlash to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish amaliyotini o'rganish.	1. "E-qaror" tizimi orqali ho'jaliklararo yer tuzish loyihasini tasdiqlash haqidagi qarorlarni tahlil qilish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2022-yil 1-iyun	Kadastr agentligi, Adliya vazirligi
		2. Ushbu qarorlarni qabul qilish zaruratini o'rganish, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish.		2022-yil 1-iyul	
12.	Ko'p kvartirali uylar mulkdorlariga yer uchastkalarini doimiy foydalanishga ajratishning xususiyatlarini aniq belgilash.	1. Foydalanishga topshirilgan ko'p kvartirali uylarga tutash hududlarni ularning mulkdorlariga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratish xususiyatlarini belgilash.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2022-yil 1-iyun	Kadastr agentligi, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Adliya vazirligi
		2. Ko'p kvartirali uy foydalanishga qabul qilinganidan keyin yer uchastkasiga bo'lgan huquq quruvchidan uy-joy mulkdorlariga o'tishining xususiyatlarini belgilash.		2022-yil 1-iyul	
<b>IV. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun zarur yer uchastkalarini aniqlash va ulardan foydalanish tartibini belgilash</b>					

1 3.	Avtomobil yo'llariga ajratilgan mintaqa uchun zarur yer uchastkalarini aniqlash, yo'l bo'yi mintaqasini belgilash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash.	1. Ilg'or xorijiy tajriba va milliy amaliyotdan kelib chiqib ushbu Nizom loyihasini ishlab chiqish, loyihada avtomobil yo'llari bo'ylab va ularning muhofaza zonalarida boshqa turdagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini o'tkazish tartibini ham nazarda tutish.	Transport vazirining buyrug'i	2022-yil 1-iyun	Transport vazirligi, Avtomobil yo'llari qo'mitasi, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi, Adliya vazirligi
		2. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish va qabul qilish.		2022-yil 1-iyul	
		3. Hujjatni davlat ro'yxatidan o'tkazish.		2022-yil 1-avgust	
1 4.	Muhofaza zonalarida va ajratilgan mintaqa chegaralarida temir yo'l transporti yerlarining o'lchamini belgilash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash.	1. Ilg'or xorijiy tajriba va milliy amaliyotdan kelib chiqib ushbu Nizom loyihasini ishlab chiqish, loyihada temir yo'l tarmoqlari bo'ylab va ularning muhofaza zonalarida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini o'tkazish tartibini ham nazarda tutish.	Transport vazirining buyrug'i	2022-yil 1-iyun	Transport vazirligi, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi, Adliya vazirligi
		2. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish va qabul qilish.		2022-yil 1-iyul	
		3. Hujjatni davlat ro'yxatidan o'tkazish.		2022-yil 1-avgust	
1 5.	O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomni takomillashtirish.	1. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrda 981-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha loyiha ishlab chiqish.	Vazirlar Mahkamasining qarori	2022-yil 1-iyun	Suv xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi
		2. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish.		2022-yil 1-iyul	
		3. Loyihani Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		2022-yil 1-avgust	
1 6.	Elektr uzatish tarmoqlari uchun zarur yer uchastkalarini aniqlash, ularning muhofaza zonalarini belgilash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash.	1. Ilg'or xorijiy tajriba va milliy amaliyotdan kelib chiqib ushbu Nizom loyihasini ishlab chiqish, loyihada mazkur turdagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalari doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladigan hamda servitut belgilanadigan holatlarni aniqlash.	Energetika vazirining buyrug'i	2022-yil 1-iyun	Energetika vazirligi, "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi, Adliya vazirligi
		2. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish va qabul qilish.		2022-yil 1-iyul	
		3. Hujjatni davlat ro'yxatidan o'tkazish.		2022-yil 1-avgust	
1 7.	Aloqa liniyalari, radiorele va mobil aloqa tayanch stansiyalari hamda antenna machta inshootlari uchun zarur yer uchastkalarini aniqlash, ularning muhofaza zonalarini belgilash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash.	1. Ilg'or xorijiy tajriba va milliy amaliyotdan kelib chiqib ushbu Nizom loyihasini ishlab chiqish, loyihada mazkur turdagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalari doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladigan hamda servitut belgilanadigan holatlarni aniqlash.	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari rivojlantirish vazirining buyrug'i	2022-yil 1-iyun	Axborot texnologiyalari vazirligi, "O'zbektelekom" AK, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi, Adliya vazirligi
		2. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish va qabul qilish.		2022-yil 1-iyul	
		3. Hujjatni davlat ro'yxatidan o'tkazish.		2022-yil 1-avgust	

18.	Gaz va neft quvurlari uchun zarur yer uchastkalarini aniqlash, ularning muhofaza zonalarini belgilash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash.	1. Ilg'or xorijiy tajriba va milliy amaliyotdan kelib chiqib ushbu Nizom loyihasini ishlab chiqish, loyihada mazkur turdagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalari doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladigan hamda servitut belgilanadigan holatlarni aniqlash.	Energetika vazirining buyrug'i	2022-yil 1-iyun	Energetika vazirligi, "O'ztransgaz" AJ, "Hududgazta'minot" AJ, "O'zbekneftgaz" AJ, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi, Adliya vazirligi
		2. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish va qabul qilish.		2022-yil 1-iyul	
		3. Hujjatni davlat ro'yxatidan o'tkazish.		2022-yil 1-avgust	
19.	Suv va kanalizatsiya quvurlari uchun zarur yer uchastkalarini aniqlash, ularning muhofaza zonalarini belgilash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash.	1. Ilg'or xorijiy tajriba va milliy amaliyotdan kelib chiqib ushbu Nizom loyihasini ishlab chiqish, loyihada mazkur turdagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun yer uchastkalari doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladigan hamda servitut belgilanadigan holatlarni aniqlash.	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirining buyrug'i	2022-yil 1-iyun	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, "O'zsuvta'minot" AJ, Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi, Adliya vazirligi
		2. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish va qabul qilish.		2022-yil 1-iyul	
		3. Hujjatni davlat ro'yxatidan o'tkazish.		2022-yil 1-avgust	
20.	Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari uchun zarur yer uchastkalarini aniqlash, ularning muhofaza zonalarini belgilash va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.	1. Mazkur "Yo'l xaritasi"ning 13 — 19-bandlariga muvofiq qabul qilingan vaqtinchalik nizomlarni qo'llash amaliyotini tahlil qilish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2023-yil 1-iyun	Qurilish vazirligi, Kadastr agentligi, Adliya vazirligi
		2. Vaqtinchalik nizomlarni birlashtirish asosida yagona nizom loyihasini ishlab chiqish, bir turdagi muhandislik-kommunikatsiya obyektlarining muhofaza zonasida boshqa turdagi muhandislik-kommunikatsiya obyektlarni joylashtirish tartibini o'zaro uyg'unlashgan holda belgilash.		2023-yil 1-iyul	
		3. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish.		2023-yil 1-avgust	
		4. Loyihani Vazirlar Mahkamasiga kiritish.			

Izoh: zaruratga ko'ra normativ-huquqiy hujjatlarning turlariga o'zgartirish kiritilishi, ular birlashtirilishi va ajratilishi mumkin.



Qo‘qon shahar hokimining  
2022 yil 5 maydagi  
125-11-166-Q/22-son qaroriga  
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2022-yil 12-  
apreldagi PQ-204-son qarori  
bilan tasdiqlangan

**Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va o‘rmon fondi yerlarining yer fondi toifalarini o‘zgartirish  
masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha Hukumat komissiyasi**

**TARKIBI**

1.	Sh.M. G‘aniyev	— O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, <i>Komissiya raisi</i>
2.	Sh.J. Teshayev	— Qishloq xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari, <i>Komissiya raisining o‘rinbosari</i>
3.	A.S. Nazarov	— Suv xo‘jaligi vazirining birinchi o‘rinbosari, <i>Komissiya raisining o‘rinbosari</i>
4.	I.I. Norqulov	— Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari
5.	A.I. Axmedxodjayev	— Energetika vazirining birinchi o‘rinbosari
6.	D.K. Adilov	— Qurilish vazirining birinchi o‘rinbosari
7.	<i>Lavozimiga ko‘ra</i>	— Adliya vazirining birinchi o‘rinbosari
8.	A.Y. Xaydarov	— Moliya vazirining o‘rinbosari
9.	J.E. Choriyev	— Transport vazirining o‘rinbosari
10.	S.I. Saifnazarov	— Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirining birinchi o‘rinbosari
11.	N.J. Bakirov	— O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi raisi
12.	M.M. Mirzayev	— Davlat soliq qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari
13.	B.K. Sharipov	— Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi raisi
14.	Sh.B. Nazarov	— Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari
15.	F.J. Po‘latov	— Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktori
16.	A.A. Xaitov	— O‘zbekiston fermer, dehqon ho‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi
17.	Sh.A. Abidov	— Vazirlar Mahkamasining Hududlarni kompleks rivojlantirish, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi masalalari kotibiyati mudiri
18.	T.Y. Rapikov	— Vazirlar Mahkamasining Agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish masalalari kotibiyati mudiri
19.	<i>Lavozimiga ko‘ra</i>	— Qishloq xo‘jaligi vazirligi boshqarma boshlig‘i, <i>Komissiya kotibi</i>

Izoh: Hukumat komissiyasi a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Hukumat komissiyasi ko‘rib chiqishi uchun masalalarni kiritgan tashkilotlar rahbarlari uning yig‘ilishiga chaqirilishi mumkin.

Qo‘qon shahar hokimining  
2022 yil 5 maydagi  
125-11-166-Q/22-son qaroriga  
3-ilova

### **Qo‘qon shahar hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. Qo‘qon shahar hokimining 2021-yil 19-iyul kunidagi “Farg‘ona viloyati hokimining 2021-yil 1-iyuldagi 8-11-0-Q/21-sonli qarori haqida”gi 67-11-166-Q-21-sonli qaroriga da

a) 2-bandning “**B**” kichik bandidagi “mulkdorlar yoki boshqaruvchilarga” so‘zlari “mulkdorlarga” so‘zi bilan almashtirilsin;

b) **5-ilovaning** 11-pozitsiyasi “Chora-tadbirlar nomi” ustunidan “yoki boshqaruvchilari” so‘zlari chiqarib tashlansin.

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2022-y., 07/22/204/0297-son)*